

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi 2024-yil "25" *iyul 27.8/8*
Madaniyat vazirligining
2024-yil "25" *iyul 01.17-15*
Yoshlar ishlari agentligining
2024-yil "29" *iyul 01.08/21*
Fanlar akademiyasining
2024-yil "25" *iyul 2/5*
O'zbekiston Badiiy akademiyasining
2024-yil "25" *iyul R-B03-03*
-son qaroriga 3-ilova

**O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida
o'tkaziladigan "Eng faol yil talabasi" tanlovining
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida (kunduzgi ta'lim shaklida) tahsil olayotgan talabalar o'rtasida "Eng faol yil talabasi" tanlovini (keyingi o'rinlarda – Tanlov) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning asosiy maqsadi: jamiyatga, davlatga yetuk yosh, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual salohiyatini oshirish, oliy o'quv yurtlaridagi iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning o'z salohiyatlarini namoyon etishlariga imkoniyatlar yaratish, jamoatchilik, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish, talabalik nufuzini oshirish hamda rag'batlantirishdan iborat.

3. Tanlov bosqichma-bosqich, ushbu qo'shma qarorning 3-ilovasidagi sxemaga muvofiq (tanlovni o'tkazishda zarur hollarda o'zgartirish kiritilishi mumkin) quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

a) Tanlovning birinchi bosqichi har bir oliy ta'lim muassasasida ikki turda tashkillashtiriladi:

birinchi tur – har bir fakultet (kesimi)da o'tkaziladi;

ikkinchi tur – oliy ta'lim muassasasi miqyosida fakultetlar kesimida g'olib bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida o'tkaziladi;

b) Tanlovning respublika bosqichi joriy yilning dekabr oyida o'tkaziladi.

4. Quyidagilar tanlov o'tkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) birinchi – oliy ta'lim muassasasi bosqichida rektor (direktor) boshchiligida tegishli mutaxassislar tarkibidan tanlov komissiyasi tashkil etilib, ular tomonidan:

har bir oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan o'rganish asosida tanlovga tavsiya etilgan talabalarning taqdimotini tashkil etish;

tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan fanlarni o'zlashtirish natijalari, jamoatchilik ishlari va erishilgan yutuqlar aks etgan hujjatlarni,

talabalarning ilmiy va ijodiy ishlarini qabul qilish va o'rganish asnosida tahlil etish;

tanlov ishtirokchilarining darslardagi ishtiroki, faollik darajasi, yetakchilik qobiliyatini kuzatish va baholash hamda g'olib deb topilgan ishtirokchiga tanlovning respublika bosqichida qatnashishi uchun tavsiyanoma berish;

b) ikkinchi, respublika bosqichida Tashkiliy ishchi guruh va tanlov komissiyasi tomonidan:

oliy ta'lim muassasalaridan taqdim etilgan tavsiya hujjatlarini va tanlov ishtirokchilarining taqdimot materiallarini qabul qilish, o'rganish va tahlil etish asosida g'oliblarni aniqlash;

tanlov g'oliblarining moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishini tashkil etish;

tanlov o'tishi va natijalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etish ishlari amalga oshiriladi.

5. Tanlov quyidagi nominatsiyalar bo'yicha o'tkaziladi:

a) **"Yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi"**, bunda talabaning fanlarni o'zlashtirishi va o'quv jarayonlardagi ishtiroki va faolligi, chop etilgan maqola va tezislari hamda ularning mazmun-mohiyati, dolzarbligiga oid ishlar ko'rib chiqiladi;

b) **"Yilning eng faol targ'ibotchi talabasi"**, bunda talabaning oliy ta'lim muassasasi jamoat ishlaridagi va boshqa jamoat tashkilotlari faoliyatidagi amaliy ishtiroki, faollik darajasi, targ'ibotchi sifatidagi namunaviy ishlari, tashkilotchilik qobiliyati va shu asosda o'zi tashkil etgan tadbirlar mazmuni, erishgan yutuqlari ko'rib chiqiladi;

d) **"Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi"**, bunda joriy yilda talaba tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, ixtirolar, innovatsion g'oyalari, ratsionalizatorlik takliflari, ularning yangiligi, dolzarbligi va ilmiy ahamiyati ko'rib chiqiladi;

e) **"Yilning eng faol sportchi talabasi"**, bunda joriy yilda talabaning xalqaro va respublika miqyosidagi o'tkazilgan sport musobaqalaridagi yutuqlari va erishgan natijalari ko'rib chiqiladi;

f) **"Yilning eng faol iqtidorli talabasi"**, (rangtasvir, grafika, dizayn, amaliy san'at, haykaltaroshlik bo'yicha), bunda talabaning joriy yilda mustaqil ravishda yaratgan ijodiy asarlari, erishgan yutuqlari hamda turli tanlov va ko'rgazmalardagi ishtiroki ko'rib chiqiladi.

g) **"Yilning eng faol ijodkor talabasi"**, bunda talabaning joriy yilda o'z ijodiy badiiy asarlar, maqola, joriy yilda chop etilgan risola, kitob, musiqa, kino va teatr sohasidagi qiziqishlari hamda ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijodiy jarayonlardagi ishtiroki va erishgan yutuqlari ko'rib chiqiladi.

h) **"Yilning eng faol tadbirkor talabasi"** (xotin-qizlar uchun), bunda joriy yilda mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan talaba-qizlarning erishgan yutuqlari hamda yoshlarni ish bilan ta'minlaganlik darajasi ko'rib chiqiladi.

II. Tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichini tashkil etish tartibi

6. Tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichi noyabr oyida o'tkaziladi.

7. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichining ikkita turda o'tkazilganligi to'g'risidagi yig'ilish (har bir tur bo'yicha alohida) bayonnomalari tanlov komissiyasi a'zolari imzosi bilan tasdiqlanadi va bayonnoma g'olib to'g'risidagi ma'lumotlar yig'majildi bilan birgalikda belgilangan muddatda Respublika tashkiliy ishchi guruhiga taqdim etiladi.

8. Tanlov komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ma'muriy-boshqaruv xodimlari, mutaxassis-o'qituvchilar, hamkor tashkilotlardan jalb etilgan mutaxassislar, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

9. Tanlov komissiyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichi axborot ta'minotini tashkil qiladi;

tanlov ishtirokchilaridan buyurtmanomalar va materiallarni qabul qilishni tashkil etadi;

tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarni hamda darslarda va jamoat ishlaridagi ishtiroki sifatini baholaydi;

10. Tanlovda oliy ta'lim muassasasida uzluksiz (akademik ta'tilsiz) kunduzgi ta'lim shaklida o'qib kelayotgan 2, 3, 4-bosqich talabalari ishtirok etishi mumkin.

11. Mazkur tanlovda oldingi yillarda ishtirok etib, Respublika bosqichida (1, 2 va 3-o'ringa sazovor bo'lgan) g'oliblikni qo'lga kiritgan nomzodlar tanlovda 3 yil davomida qayta ishtirok etmaydi.

12. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichida ishtirok etish istagini bildirgan talabalar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'plami tegishli fakultet dekanati tomonidan saralanadi va belgilangan muddatlarda tanlov komissiyasiga taqdim etiladi.

13. Ishtirokchiga tegishli bo'lgan quyidagi hujjatlar to'plami fakultet dekanati tomonidan tayyorlanadi va tanlov komissiyasiga taqdim etiladi:

tanlov ishtirokchisining qobiliyati, fanlarni o'zlashtirish darajasi, yetakchilik qobiliyati, erishgan yutuqlari, darslardagi faol ishtiroki, talabalarga o'rnak bo'ladigan jihatlari va jamoat ishlaridagi faoliyati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan ikki betdan oshmaydigan hajmdagi taqdimnoma;

tanlov ishtirokchisining fanlarni o'zlashtirish natijalari aks etgan hujjatlar (baholarni qayd etish varaqalari, talabaning baholarni o'zlashtirish sinov daftarchasi) nusxalari;

tanlov ishtirokchisining nashr etilgan ilmiy, ilmiy-uslubiy, ijodiy ishlari, ularga tegishli mutaxassislardan olingan taqrizlar bilan birga va ijodiy ishlarning elektron shakli;

xalqaro va respublikamiz miqyosida o'tkazilgan tadbirlar, tanlovlarda faxriy yorliqlar va diplomlar bilan taqdirlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar (nusxalari ilova qilinadi);

grantlarda ishtirok etganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma, grantning nomi, moliyalashtirish hajmi, ishtirokning shakli va darajasi ko'rsatiladi;

konferensiyalardagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlar, ilmiy ishlar ro'yxati va ilmiy ishlar nusxalari ilova sifatida taqdim etiladi;

hujjatlar to'plamiga kiritilgan materiallar va axborotlar joriy yil davomida chop etilgan bo'lishi lozim.

14. Tanlov komissiyasi, ishtirokchilarning hujjatlar to'plami, darslarda va jamoat ishlarida ishtiroki sifatini, shuningdek, ishtirokchi bilan individual o'tkazilgan suhbat doirasida olingan ma'lumotlarni baholash natijalarini hisobga olgan holda, har bir nominatsiya bo'yicha g'olib (1-2-3-o'rin)larni aniqlaydi va birinchi o'rin sovrindorlarini tanlovning respublika bosqichida qatnashish uchun tavsiya etadi.

15. Nominatsiyalar bo'yicha 1-2-3-o'rinlarni egallagan g'olib va sovrindorlar oliy ta'lim muassasasining faxriy yorlig'i bilan mukofotlanadi hamda tegishli ravishda 1-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida, 2-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 6 barobari miqdorida va 3-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobari miqdorida moddiy rag'batlantiriladi.

16. Moddiy rag'batlantirish uchun pul mablag'lari oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i asosida oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ajratiladi.

III. Tanlov tashkilotchilari va hamkor tashkilotlar.

17. Tanlovning respublika bosqichi Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan har yili dekabr oyida o'tkaziladi.

18. Quyidagilar Tashkiliy ishchi guruhining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tanlovni o'tkazish muddatlarini belgilash (zarur hollarda masofaviy-onlayn shaklida) va uni yuqori darajada o'tkazish;

har bir nominatsiya bo'yicha alohida tanlov komissiyasi (ekspertlar guruhi) tarkibini shakllantirish;

har bir nominatsiya bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish;

19. Tashkiliy ishchi guruhi qoidaga ko'ra, rais, rais o'rinbosari, Tashkiliy ishchi guruh kotibi va a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Tashkiliy ishchi guruh raisi, rais o'rinbosari va kotibi uning a'zolari orasidan saylanadi.

20. Tashkiliy ishchi guruh raisi:

Tashkiliy ishchi guruhi majlisi kun tartibini belgilaydi va uni o'tkazadi;

Tashkiliy ishchi guruhi qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Tashkiliy ishchi guruhi a'zolariga yuklangan vazifalarni bajarish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.

21. Tashkiliy ishchi guruhi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Tashkiliy ishchi guruhi majlislarida ko'rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishda va hal etishda qatnashish;

ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha xulosalar taqdim etish.

Tashkiliy ishchi guruhi faoliyatida ishtirok etish jamoatchilik asosida amalga oshiriladi.

22. Tashkiliy ishchi guruhi majlisini rais yoki rais o'rinbosari boshqaradi. Tashkiliy ishchi guruhi majlisi a'zolarining uchdan ikki qismi qatnashganda vakolatli hisoblanadi.

23. Tashkiliy ishchi guruhi kotibi:

Tashkiliy ishchi guruhi majlisiga barcha zarur hujjatlarning o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

Tashkiliy ishchi guruhi raisi bilan majlisning o'tkaziladigan joyi va vaqtini kelishadi;

Tashkiliy ishchi guruhi a'zolarini majlisning o'tkazilish sanasi, joyi va kun tartibidan xabardor qiladi;

Tashkiliy ishchi guruhi majlislarining kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'tkazilishini tashkil etadi;

Tashkiliy ishchi guruhi majlisi bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangandan so'ng Tashkiliy ishchi guruhi a'zolariga va manfaatdor tashkilotlarga yuboradi.

24. Tashkiliy ishchi guruhi qarori a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda Tashkiliy qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

25. Tashkiliy ishchi guruhining ish tartibi u tasdiqlaydigan reglament asosida belgilanadi.

26. Tanlovning ta'sischi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisoblanadi.

27. Tashkilotchi tanlovning barcha bosqichlarini tashkillashtirish va o'tkazish jarayonida Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlashda bevosita hamkorlik qiladi va o'z vakillarining Tashkiliy ishchi guruhi a'zosi sifatida samarali ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

IV. Tanlovning Respublika bosqichini o'tkazish

28. Tanlov komissiyalarining har bir nominatsiya bo'yicha tarkiblari Respublika Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan tasdiqlanadi.

29. Tanlov komissiyalari tanlovning Respublika bosqichiga taqdim etilgan ishtirokchilarning hujjatlarini 10 ish kuni mobaynida ko'rib chiqadi hamda har bir nominatsiya bo'yicha komissiya a'zolari tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida tanlov ishlari baholash orqali har bir nominatsiya bo'yicha g'oliblar (1-2-3-o'rin) aniqlanadi. Tanlov komissiyalari majlislari bayonnomalari Tashkiliy ishchi guruhi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

30. Tanlovning Respublika bosqichida har bir nominatsiyalar bo'yicha 1-2-3-o'rin sohiblari bo'lgan ishtirokchilar tanlov statuetkasi, guldasta, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli darajadagi diplomlari va 1-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobari miqdorida pul mukofoti, 2-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida pul mukofoti hamda 3-o'rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

31. Tanlovning respublika bosqichi g'oliblarini moddiy rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i asosida oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

32. Tanlov g'oliblari oliy ta'lim muassasalarining homiy tashkilotlari tomonidan qo'shimcha ravishda rag'batlantirilishi mumkin.

33. Tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar o'z hisoblaridan tanlov g'oliblarini qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirishga haqlidirlar.

34. G'oliblarni mukofotlash tadbiri tanlovning Tashkiliy ishchi guruhi qarori asosida belgilangan muddatda tantanali ravishda o'tkaziladi.

35. Tanlovga taqdim etilgan hujjatlar qaytarilmaydi.

36. Mazkur tanlovni tashkil etish va o'tkazishda mas'ul bo'lgan xodimlar asosiy ish joyidan rag'batlantiriladi.

V. Yakuniy qoidalar

37. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlarda e'lon qilib boriladi.

38. Tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog'liq murojaat (e'tiroz)lar qabul qilinmaydi.

39. Mazkur nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

